

ANDIJON VILOYATIDA bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida, Andijon viloyatida jami 1 364,8 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 111,1 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	1 364,8	111,1
Andijon shayar	386,1	106,3
Xonobod shayar	28,8	108,6
Oltinko'l tumani	48,2	106,8
Andijon tumani	108,6	114,5
Baliqchi tumani	17,8	107,5
Bo'ston tumani	39,6	109,1
Buloqboshi tumani	25,7	155,4
Jalaquduq tumani	44,2	108,4
Izboskan tumani	28,8	110,1
Ulug'nor tumani	18,2	111,1
Qo'rg'ontepa tumani	27,1	122,5
Asaka tumani	41,3	137,6
Marhamat tumani	42,4	106,8
Shahrixon tumani	72,7	109,9
Paxtaobod tumani	36,1	108,0
Xo'jaobod tumani	43,7	119,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-fevral oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,8 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 111,5 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,6 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 115,4 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,7 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 99,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	57,5	55,2	17,5
o'sish sur'ati, % da	89,2	239,1	2 338,2
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	559,2	157,1	83,9
o'sish sur'ati, % da	114,8	97,6	83,4
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	430,9	-	-
o'sish sur'ati, % da	111,1	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 130,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 147,4 % ni tashkil etgan, umumiy hajmdagi ulushi 9,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmining 58,9 % ni kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 106,7 % ni tashkil etgan holda 803,7 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 31,6 % ni yoki 430,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 111,1 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari




Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Andijon viloyati	129,7	803,7	430,9	150,1	106,7	111,1
Andijon shahar	39,3	334,0	12,3	67,7	114,2	97,8
Xonobod shahar	-	24,2	4,7	-	113,2	113,4
Oltinko'l tumani	-	38,9	9,3	-	106,9	106,2
Andijon tumani	37,5	63,9	7,1	2314,4	74,9	101,7
Baliqchi tumani	-	11,3	6,5	-	109,7	103,9
Bo'ston tumani	0,4	32,7	6,5	-	108,3	106,2
Buloqboshi tumani	10,7	7,6	7,4	1929,5	86,8	102,0
Jalaquduq tumani	7,3	26,6	10,3	99,0	113,3	103,8
Izboskan tumani	0,0	23,0	5,8	-	108,4	117,1
Ulug'nor tumani	0,4	11,6	6,2	17,2	131,6	114,1
Qo'rg'ontepa tumani	5,3	16,1	5,8	625,5	100,4	109,4
Asaka tumani	0,6	13,6	27,1	71,1	92,5	187,7
Marhamat tumani	0-	35,2	7,2	-	106,7	107,0
Shahrixon tumani	0,1	64,4	8,2	47,9	110,3	107,9
Paxtaobod tumani	0,0	24,0	12,1	0,0	114,2	101,1
Xo'jaobod tumani	8,0	27,4	8,2	764,5	100,0	100,3

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Andijon tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 2314,4%), va Andijon tumanida (9565,3%) qayd etildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiya va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

M.Sotvoldiyev
74 224-29-37 (6020)

Manzil:

